

## BOSHLANG'ICH SINIF TARBIYA DARSLIKLARIDA BERILGAN ASARLARNI O'RGATISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Zulfiya Ortiqova

Farg'ona davlat universiteti

boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası

katta o'qituvchisi PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11618129>

**Kalit so'zlar:** teatr, sahna, o'yinlar, mahorat, didaktika, noan'anaviy, tarbiyaviy.

Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

Jamiyatning rivojlanishida o'qitishning noan'anaviy shakllarini amalyotga tadbiiq etish jarayoni kechmoqda. Tarbiya fanining noan'anaviy o'qitish shakllaridan foydalanishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

- Har bir mavzuni sinfxonasidan tashqari mashg'ulotlar vositasida imkon qadar amaliy jihatdan mustahkamlash;
- Dars davomida o'quvchilardan o'z fikrlarini mo'proq bayon etishga undash;
- Dars davomida asarlarni sahnalashtirishni yo'lga qo'yish

Bunday yondashuv tarbiya fanini noan'anaviy shakllarda o'qitish vositalari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'qitishning noan'anaviy shakllari amalyotga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida berilgan asarlarni o'quvchilar uchun qiziqarli usullar bilan yondashgan holda dars o'tishda, avvalo asaarning mazmunidan kelib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Asarlarni o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish dars samarasini oshiradi. Asarlarni tushuntirishda quyidagi didaktik o'yinlardan foydalanishimiz mumkin.

**Teatrlashgan dars-** ushbu darsda asar o'quvchilar tomonidan sahnalashtirilgan holda o'tiladi. Qaysi guruh qahramonlari yaxshi sahnalashtirishiga qarab o'quvchilar darsda baholanadi.

**Yarmarka darsi-** ushbu darsda o'quvchilar oldindan mavzuni o'qib keladilar. Qaysi o'quvchilar asarni puxta o'zlashtirgan bo'lsa, osha o'quvchilar qolganlar bilan muloqot qilish orqali darsni o'zlashtiradilar. Qolgan o'quvchilar bersan savollariga "sotuvchilar" javob beradilar.

**Sud darsi-** ushbu darsda o'quvchilar sud zalini tashkil etadilar. Asar qahramonlarini har birini sud qilish orqali darsni tashkil etadilar. Salbiy qahramonlarga o'zlari istagan jazoni beradilar. Ushbu turdagi darslarda o'quvchilar o'z fikrini omma oldida bayon etishni o'rganib boradilar. Didaktik o'yinlarni tashkillashda o'quvchilar Yoshi va qiziqishlari, shuningdek, dars mavzusi ham inobatga olinishi lozim. Har bir didaktik o'yin shartlariga havfsizlik shartlari qo'yiladi. Ushbu havfsizlik talablariga to'liq rioya etish o'quvchilardan talab etiladi. Fanning nomidan ham kelib chiqqan holda o'quvchilar dars davomida bir birlarini hurmat qilishlari, tartib-intizomga rioya etishlari lozim. Bundan tashqari har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin sarflanadigan vaqt miqdorini inobatga olish lozim.

Asarlarni tahlil qilishda tezkor savol javoblar qilish, quyosh klasterida qahramonlarning harakterini yozish ham mumkin. Darsni mazmunli tashkillash albatta o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq hisoblanadi.

### References:

1. O.V Usmanova, Y.V Risyukova 1-sinf uchun darslik Tarbiya .Toshkent-2023
2. Alijon Karimjonov, Fariddun Ochilov –Boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiya muammolari|| Toshkent-2020 Ta'lim taraqqiyoti.
3. Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinova. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent. 2020.
4. D.B.Axmedova, M.A.Shodiyeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim egallashga doir qarashlarini shakllantirishda didaktik asarlarning o'rni. Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi. 2022.